

**XATIB BAG'DODIYNING
"AL-JOME" ASARIDA RIHLA MASALASI
AKS ETISHI**

**THE ISSUE OF RIHLA (TRAVELING
FOR KNOWLEDGE) IN THE WORK
"AL-JAMI" BY KHATIB
AL-BAGHDADI**

**РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ КОНЦЕПТА
ПУТЕШЕСТВИЯ (RIHLA) В
ТРУДЕ ХАТИБА АЛЬ-БАГДАДИ
«АЛЬ-ДЖАМИ»**

JO'RAYEV Muxriddin

Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

Senior Lecturer

Denau city, Surkhondarya region, Uzbekistan

Email: muxriddin241992@gmail.com

DOI: 10.47980/IIAU/2026/1/5

Annotatsiya. Ushbu maqolada hadisshunoslikning "mutaqaddimun" (Hadis ilmining shakllanish jarayoni sahih hadislar to'plangan davr — hijriy III (milodiy IX) asr oxiri va IV (milodiy X) asr boshlarida yakunlangan) bosqichida muhim o'rin tutgan, hadis ilmi odoblari va ta'lim metodikasiga bag'ishlangan Xatib al-Bag'dodiyning (392/1002-463/1071) «Al-Jome' li axlaq ar-roviiy va adab as-some'» ("Roviylarning axloqi va tinglovchilarning odobi to'plami") nomli asari tadqiq etilgan. «Al-Jome'» asari hadis ilmi, rivoyat odoblari va muhaddislarining axloqi haqida qimmatli manbalardan biri sanaladi.

Ushbu maqolada «Al-Jome'» asarining mazmuni, rivoyatlarning sanad va matn jihatlarini chuqur o'rganilgan va an'anaviy hadis ta'lim-tarbiya odoblari va rihla masalasi tizimli ravishda tahlil qilingan. Bu esa hadis ilmi va uning odo-axloqiy tamoyillarini yanada yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Maqolada mazkur manbaning tuzilishi, unda ilgari surilgan ilmiy safar — rihla tushunchasi hamda ustoz va shogird o'rtasidagi o'zaro munosabatlar masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, asarda keltirilgan hadis roviylarining ma'naviy-axloqiy qiyofasiga doir talablar va ilm talab qilishdagi ijtimoiy-madaniy me'yorlar ilmiy nuqtayi nazardan yoritib berilgan. Tadqiqot natijasida Xatib al-Bag'dodiy asarining bugungi kunda hadisshunoslik metodologiyasini o'rganishdagi ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Hadis, rihla, odo, sanad, zaif, roviy, rivoyat, sahoba, tobiin, matn, muhaddis, duo, kitob, yo'l, tolib, ustoz.

Abstract. This article examines the book of Al-Khatib al-Baghdadi (392/1002-463/1071) titled "Al-Jami' li-akhlaq

al-rawi wa-adab al-sami'" ("The Collection on the Ethics of the Narrator and the Etiquette of the Listener"), which holds a significant place in the "Mutaqaddimun" (the early period of hadith scholarship, which concluded by the end of the 3rd/9th and beginning of the 4th/10th centuries) stage of hadith studies. The book "Al-Jāmi'" is considered one of the valuable sources on the science of hadith, the etiquette of transmission, and the ethics of hadith scholars.

This article provides an in-depth study of the content of "Al-Jāmi'", examining the chains of transmission and textual aspects of the narrations, and systematically analyzes the traditional pedagogical ethics of hadith scholarship as well as the concept of journey (rihla). This, in turn, contributes to a deeper understanding of the science of hadith and its ethical and moral principles.

The article also analyzes the structure of this source, the concept of scholarly journey (rihla) advanced within it, as well as the issues of relationships between teachers and students. In addition, the study elucidates, from a scholarly perspective, the requirements concerning the moral and ethical character of hadith transmitters presented in the book, as well as the socio-cultural norms related to the pursuit of knowledge. As a result of the study, the significance of al-Khaṭīb al-Baghdādī's work in the contemporary study of hadith methodology has been substantiated.

Keywords: Hadith, journey, etiquette, sanad, weak, narrator, narration, companion, successors, text, hadith scholar, supplication, book, path, seeker, teacher.

Аннотация. В данной статье исследуется труд Аль-Хатиб аль-Багдади «Аль-Джами' ли ахлак ар-равий ва адаб ас-сами'» («Свод нравственных качеств передатчика и этики слушателя»), который занимает важное место в периоде «мутакаддимун» в развитии хадисоведения. Этот этап связан с формированием достоверных хадисов к концу III (IX в.) — началу IV (X в.) века хиджры. Рассматриваемое произведение представляет собой одно из ключевых источников по вопросам этики передачи хадисов, научной дисциплины и нравственного облика передатчиков.

В статье проводится анализ содержания «Аль-Джами'», включая изучение особенностей иснадов (цепочек передатчиков) и матна (текста хадисов). Особое внимание уделяется традиционным нормам хадисной педагогики, вопросам научного воспитания и практике рихлы (научного путешествия) как важного элемента получения знаний.

Также исследуются структура произведения, концепция рихлы как формы научного поиска, а также взаимоотношения между учителем и учеником. Рассматриваются требования к нравственным качествам передатчиков хадисов и социально-культурные нормы, связанные с процессом получения знаний. В результате обосновывается значимость труда аль-Хатиба аль-Багдади для понимания методологии хадисоведения и его актуальность в современных научных исследованиях.

Ключевые слова: хадис, рихла (путешествие), адаб (этикет), санад, слабый (да'иф) хадис, равй (передатчик), риваят, сподвижники, табиини, матн (текст), мухаддис, дуа, книга, путь, талиб (ищущий знания), мударрис (учитель).

KIRISH

«Al-Jome' li axlaq ar-roviy va adab as-some'» (“Roviylarning axloqi va tinglovchilarning odobi”) asari hadis ilmi metodologiyasida muhim o‘rin tutib, hadis rivoyati bilan shug‘ullanuvchi sub’yektlar uchun ta’lim berish va o‘zlashtirish jarayonidagi fundamental pedagogik hamda axloqiy me’yorlarni tizimlashtiradi. Mazkur manba hadis ilmining nazariy va amaliy jihatlarini uzviy bog‘lagan holda, ustoz va shogird munosabatlarining huquqiy-etik tamoyillarini belgilab beruvchi dasturilamal vazifasini o‘taydi. Asar o‘n bobdan iborat bo‘lib, har biri turli hajmlarda o‘tiz uch bob va 233 fasldan tashkil topgan. Muqaddimada Payg‘ambar (s.a.v.) va islom olimlarining axloqi va odobiga amal qilib hadis o‘rganish zarurligi haqida so‘z yuritiladi. Keyingi bo‘limlarda hadis talabasi (some‘) yaxshi niyatga ega bo‘lishi, ustozlarini yaxshi tanlashi, darsga borishda, ustozning huzuriga kirishda, dars tinglashda, savol berishda ma’lum qoidalarga rioya qilishi, hadislarni yozishda, yozgandan keyin murojaat qilishda xato qilmaslikka harakat qilishi kabi masalalar muhokama qilinadi.

Keyingi bo‘limlarda roviy (ustoz)ning axloqi haqida so‘z boradi. Uning talabalariga ularning ahvoliga mos ravishda munosabatda bo‘lishi, hokimlardan manfaat kutmasligi, kiyim-kecimiga e’tibor berishi, talabalariga dars berishda ma’lum qoidalarga rioya qilishi kerakligi ta’kidlanadi va kimlarga hadis rivoyat qilish mumkinligi tushuntiriladi. Keyinchalik, muhaddisning rivoyat jarayonida xato qilmaslik uchun e’tibor berishi kerak bo‘lgan masalalar ko‘rib chiqiladi. Imlo majlisi va imlo odoblari, hadis o‘rganish uchun qilinadigan safarlar va ularning odoblari, o‘rganilgan hadislarni yaxshi saqlash usullari va unutmazlikning choralari zikr qilinadi.

Xatib Bag‘dodiy asarida keltirgan har bir ma’lumotni sanadlari bilan birga keltiradi va deyarli har bir mavzuni hadislar, sahobalarning so‘zlari va amaliyotlari, tabi’inlarning fikrlari va nihoyat, mavzu mutaxassislarining aniqliklari va tavsiyalari bilan dalillantiradi. Turli fikrlar orasidan o‘zi qabul qilganlarini “Bizning tanlovimiz shu” deb baholaydi, ba’zilarini esa tanqid qiladi. Masalan, yurishda, turgan holda, yotgan holda va tahoratsiz holda hadis rivoyat qilishni yomon ko‘rganlarning fikrlarini keltirgandan so‘ng, bu holatlarda hadis rivoyat qilishni mos ko‘rmaganlarning asosiy maqsadi hadisga hurmat ko‘rsatish ekanligini, aks holda bu holatlarda hadis rivoyat qilgan kishi gunohkor

sanalmasligi kabi noto‘g‘ri ish ham qilmagan deb hisoblanishi mumkin emasligini ta’kidlaydi. Hurmatga eng loyiq bo‘lgan Qur’oni karimning bu holatlarda o‘qilishi joiz bo‘lsa, hadis rivoyat qilish ham joiz bo‘lishi kerakligini aytadi.

Xatib Bag‘dodiyning “Al-Jome’” nomli asarida muhaddis va hadis talabasida bo‘lishi kerak bo‘lgan axloqiy xususiyatlar o‘rganilgan. Hadis ilmi bilan bog‘liq ba’zi masalalar ham muhokama qilingan bu asar nafaqat o‘z sohasida noyob asar bo‘lishi bilan birga (Hatib, Al-Jome’, tahq. Tahhon, j. 1, s. 47;), shu mavzuda yozilgan ilk asarlardan biri bo‘lish imtiyoziga ham ega (Hatib, nashr yili ko‘rsatilmagan:75)

Xatib asariga “Basmala” bilan boshlagan, so‘ngra qisqa bir muqaddima yozgan. Bu muqaddimada hamdu sanodan so‘ng, “Sharafu as’hobi-l-hadis” nomli asarida mo‘minlarni Payg‘ambar (s.a.v.)ning hadislarini o‘rganishga, ularni o‘rganish uchun harakat qilishga, ularni to‘plashga va ularga amal qilishga rag‘batlantirganligi haqida so‘z yuritgan. Keyin har bir ilmni o‘ziga xos xususiyatlari borligini va unga mansub bo‘lganlar shu ilmga xos usul va tarzlardan foydalanishlari kerakligini ta’kidlagan.

So‘ngra, ba’zi odamlar o‘zlarini hadis ahlidan deb hisoblashini, rivoyat va eshitish masalalarida mutaxassis ekanliklarini zonn (shubha) qilishlarini, ammo bu odamlar da’vo qilgan masalalardan juda uzoqda ekanliklarini ta’kidlagan. Bu ilmning nozik jihatlarini yaxshi yod olish mashaqqatiga kirishmaganligi sababli, bu kishilar kichik bir juz tuzib, qisqa vaqt davomida eshitish bilan shug‘ullanganidan so‘ng o‘zlarini mutlaq ma’noda hadis ahlidan deb hisoblashlarini aytgan (Hatib, nashr yili ko‘rsatilmagan: 115-116).

Bu asar muhaddislar va hadis talabalari uchun nafaqat ilmiy, balki axloqiy jihatlarni ham qamrab oladi. Xatib Bag‘dodiyning ushbu asari hadis ilmi va uning odob-axloqiy tamoyillarini chuqur o‘rganishga yordam beradi. Xatib Bag‘dodiyning ushbu fikrlarini qo‘llab-quvvatlovchi misol rivoyatlarni keltirgandan so‘ng, bir kishi “sohibu-l-hadis” deb atalishi uchun qancha hadis yozishi kerakligi haqida rivoyatlar keltiradi.

Keyin bu tur odamlar, kam hadis yozishlariga va hadis haqida kam bilimlariga qaramay, odamlarning eng mag‘rurlaridan, eng g‘ururlilaridan ekanliklarini, shayxlariga hurmat ko‘rsatmasliklarini, talabalariga nisbatan mas’uliyat hissiyotiga ega bo‘lmasliklarini ta’kidlaydi. Bu odamlar roviylar haqida bilimsiz ekanliklarini aytib, o‘rgatishga urinayotgan bilimlariga qarama-qarshi ravishda talabalariga qo‘pol va qattiq munosabatda bo‘lishlarini ifodalaydi. U bu masaladagi fikrlarini ba’zi hadis imomlarining so‘zlaridan rivoyatlar bilan qo‘llab-quvvatlaydi (Hatib, nashr yili ko‘rsatilmagan:118.).

Xatib hadis talabasi odamlarning eng odobli, eng tavozeli, eng nozik va eng dindorlaridan bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Chunki uning fikriga ko'ra, hadis talabasi Payg'ambar (s.a.v.)ning odobi va go'zal axloqini o'z ichiga olgan xabarlar bilan shug'ullanadi. Bundan tashqari, ahli bayt va sahobalarning siyrati, muhaddislarning hayoti va o'tmishdagi voqealar bilan shug'ullanganligi sababli, hadis talabasining beqaror va g'azabli bo'lmasligi kerakligini aytadi. Keyin fikrini qo'llab-quvvatlovchi rivoyatlar keltiradi.

Bu rivoyatlardan biri Anas ibn Molik (r.a)ning Ibn Shihob(r.a)dan shu rivoyatidir: "Albatta bu ilm (hadis ilmi) Allohning Payg'ambari (s.a.v.)ni tarbiyalagan usulidir. Payg'ambar (s.a.v.) ham bu tarbiya bilan ummatini tarbiyalagan. Hadis ilmi Allohning ummatiga topshirish uchun Payg'ambariga (s.a.v.) bergan omonatidir. Kim bu omonatdan (hadis) biror narsa eshitsu, o'zi bilan Alloh o'rtasidagi masalalarda uni dalil qilib olsin." (Hatib, nashr yili ko'rsatilmagan:7.)

Xatib muqaddimasining so'nggi qismida u kitobini yozish maqsadi haqida quyidagi ifodalarni ishlatadi: "Endi men bu kitobimda Allohning izni bilan hadis noqillari (hadis bilan shug'ullanuvchi va uni o'rgatuvchi) uchun hadis eshitishda, o'rganishda, rivoyat qilishda va yetkazishda kerak bo'ladigan bilimlarni, ularga yordam beradigan go'zal usullarni va egallashlari kerak bo'lgan pokiza axloqni zikr qilaman". Keyin u fikrini qo'llab-quvvatlovchi rivoyatlarni keltiradi. Misol sifatida, Zakariyo al-Anbariy ilm bilan birga odobning zarurligi haqida shunday deydi: "Odobsiz ilm, o'tinsiz olovga o'xshaydi. Ilmsiz odob esa jismsiz ruhga o'xshaydi". (Hatib, nashr yili ko'rsatilmagan:12) Xatibning ifodalari va fikrlarini qo'llab-quvvatlovchi rivoyatlaridan ko'rinadiki, u bu asarni hadis bilan shug'ullanuvchilar birinchi navbatda axloqli bo'lishlari kerakligiga va bu ilming nafaqat moddasi (bilim), balki ma'nosi (o'qitish/o'rganish odobi) ham juda muhim ekanligiga e'tiborni jalb qilish uchun yozgan.

ASOSIY QISM

O'n bobdan iborat bo'lgan asar Muhammad Ra'fat Said, Mahmud at-Tahhon, Muhammad Ajaj al-Xatib va Abu Abdurrahmon Solih ibn Muhammad ibn Uvayda tomonidan nashr etilgan. Bakr ibn Abdulloh Abu Zayd asarning ayrim qismlarini "Adabu tolibi-l-hadis" nomi bilan nashr qilgan.

Asar bilan bog'liq ba'zi tadqiqotlar ham mavjud. Masalan, Lutfi Chakan tomonidan asarning kichik bir qismi "Xatib Bag'dodiyga ko'ra hadis o'rganish" (Kandemir, nashr yili ko'rsatilmagan:456) sarlavhasi ostida qisqacha tarjima qilingan. Shuningdek, asar bilan bog'liq Molik Habib Ahmadning "The educational theory of al-Khatib al-Baghdadi" nomli tadqiqoti va

Solih Ahmad Ma'lumning "al-Fikr at-tarbaviyyu inda al-Xatib" nomli tadqiqoti ham mavjud.

Asarning qo'lyozma nusxalari haqida Tahhon uzoq tadqiqot olib borganini, ammo "Maktabatu-l-baladiyya"dagi (Iskandariya) nusxadan tashqari to'liq qo'lyozma nusxasini topa olmaganini qayd etadi. Bundan tashqari, Zohiriyya Kutubxonasida mavjud bo'lgan nusxa o'n to'rt juz va o'n olti varoqdan iborat. Juda qimmatli qo'lyozma bo'lishiga qaramay, to'liq emasligi Tahhonnin Iskandariya nusxasiga yo'naltirgan. Yusuf al-Ush esa asarning Iskandariya kutubxonasida o'n jild shaklida qo'lyozma nusxasi mavjudligini ta'kidlagan.

Bu asar hadis ilmi, axloq va odob haqida qimmatli manba bo'lib, muhaddislar va talabalar uchun muhim qo'llanma hisoblanadi. Tahhon qo'lyozma nusxada 10 juz, 33 bob va bu bo'limlar ostida 233 sarlavha aniqlaganini ta'kidlaydi. Ajaj al-Xatib esa tahqiqining so'z boshlovda "Al-Jome" "ni quyidagicha ta'riflaydi: "32dan ortiq bob, bu bo'limlar ostida 239 sarlavha va ikki mingga yaqin paragrafdan iborat asar." Kitobdagi juzlar bir-biridan farq qiladi. Bir juz bir mavzuga bag'ishlanmagan. Ba'zan bir masala bir juzda boshlanib, keyingi juzda tugashi mumkin.

Bu boblar hadis ilmi, rivoyat odoblari, muhaddislarning axloqi va talabalar uchun kerakli bo'lgan odob-axloq qoidalarini qamrab oladi. Xatib al-Bag'dodiyning ushbu asari hadis ilmi va uning odob-axloqiy tamoyillarini chuqur o'rganishga yordam beradi. "Al-Jome" deyarli yarmi marfu' bo'lgan 1924 ta rivoyatni o'z ichiga oladi. Bu rivoyatlar ichida ishonib bo'lmaydigan darajada zaif rivoyatlar ham uchraydi. Muallifning ularga ishora qilmasining sababi, o'sha davrda hadisni sanadi bilan keltirgandan so'ng, uning sahifligini alohida tushuntirish zarurati hisoblanmagan bo'lishi mumkin. Biroq, Xatib Bag'dodiy kabi bir otoritetning hukm asosida keltirgan dalillarning holatini tushuntirmashti, bu noto'g'ri tushunchalarga sabab bo'lishi mumkinligi uchun muhim kamchilik sifatida baholanishi mumkin. Asarning bu kamchiligi uni nashrga tayyorlaganlar, ayniqsa Mahmud at-Tahhonning tahqiqi orqali bartaraf etilgan.

Asar birinchi marta Muhammad Ra'fat Said tomonidan nashr etilgan. Bu nashr muallifning hayoti, asarlari va "Al-Jome" ning baholanishiga oid 162 sahifali muqaddimasi va xulosasidan tashqari unchalik muhim emasligi va matn bilan bog'liq muhim ish qilinmaganligi ko'rinadi. Shuning uchun asarni keyinchalik qayta nashr etgan Mahmud at-Tahhon bu nashrni ilmiy usullar nuqtai nazaridan tanqid qilib, aniqlagan asosiy xatolarni sanab o'tgan. Tahhonning nashri asardagi rivoyatlarning raqamlanishi, ba'zi joylarda harakotlarni, muallifga tegishli baholarning mustaqil paragraflar shaklida yulduzcha belgisi bilan

ko'rsatilishi va boshqa tahrij va tahqiq asoslarining bajarilishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

MUHOKAMA

Xatibning kitobida qo'llagan metodini tushuntirishda uning fikrlarini oyatlar bilan qo'llab-quvvatlaganligi haqida aytish mumkin. Xatib "Al-Jome'" asarida 51 ta oyatni turli fikrlarini qo'llab-quvvatlash uchun rivoyatlar bilan birga ishlatgan. Bundan tashqari, Xatib fikrlarini qo'llab-quvvatlashda o'zidan oldingi olimlar tomonidan eslatilmagan rivoyatlarni ham tizimli ravishda ishlatib, asarning o'ziga xosligini namoyon qilgan. Asarda taxminan ikki mingga yaqin rivoyat mavjud. Bu rivoyatlar ichida marfu', mavquf va maqtu' rivoyatlar bor. Tahqiqi nashrlardagi aniqlanishlarimizga ko'ra, rivoyatlarning 408 tasi marfu', 130 tasi mavqufdir. Qolgan 1386 ta rivoyat esa tobi'in (maqtu') va keyingi avlodlarga tegishli.

Xatib "Al-Jome'" "dagi rivoyatlarning sahiihlik holatini ko'rsatmagan. Rovi holatlari va rivoyatlarning holati yaxshi ma'lum bo'lgan davrda Xatibning rivoyatlarni sahiihlik holatisiz keltirishi tanqidga uchragan jihatlardan biridir. Ajaj Xatibning tahqiqiga ko'ra, asardagi rivoyatlarning to'rttasi munkar, ikkitasi matruk, bittasi mardud, bittasi mursal bo'lib, jami 128 ta zaif va 9 tasi mavzu rivoyat mavjud. Ajaj Xatib rivoyatlarning ikkitasini "asli yo'q" (la asla lah), ikkitasini esa "bu hadisni ishonchli asarlarda topa olmadim" deb baholagan.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida "Al-Jome'" "dagi rivoyatlarni umumiy jihatdan sahiihlik holatiga ko'ra baholaganimizda, bir fikr uchun bir nechta rivoyat mavjudligini ham hisobga olgan holda, asarning obro'siga putur yetkazadigan rivoyatlar soni ko'p emasligini aytish mumkin. Xatib Bag'dodiyning "Al-Jome'" asari hadis ilmi, rivoyat odoblari va muhaddislarning axloqi haqida qimmatli manba bo'lib, uning fikrlarini qo'llab-quvvatlashda oyatlar va rivoyatlardan foydalanishi asarning ilmiy jihatdan mustahkamligini ko'rsatadi. Biroq, ba'zi zaif va mavzu rivoyatlarning mavjudligi asarning umumiy qiymatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi.

Mutaqaddimun olimlarning so'ngisi va mutaahhirun (Mutaahhirun davri odatda hijriy V asrdan keyingi davr milodiy XI asrdan boshlab keyingi asrlar) olimlarining birinchisi bo'lgan Xatib Bag'dodiyning "Al-Jome'" asari haqida turli fikrlar bildirganlar bo'lgan. Bu olimlar odatda uning zamondoshlari bo'lib, Xatibni o'z davridagi boshqa olimlar bilan solishtirishgan va uning asarlari haqida baholar berishgan. Xatib va uning asari haqida baho berganlardan ba'zilar quyidagilar:

1. Ibn Hayr (vaf. 575): "Kitoblarning eng yaxshilaridan biridir. Xatib ushbu kitobida hadis ta'lim-

tarbiyasi bilan bog'liq odobiy va tanlangan usullarni ochib bergan."

2. Ibn Hajar al-Asqaloni (vaf. 852/1448): Ibn Hajar hadis usuli bilan bog'liq yig'ma ishlarning ar-Romahurmuziy (vaf. 360/970) bilan boshlanganligini, al-Hokim Abu Abdulloh an-Nisoburiy (vaf. 405/1014) va Abu Nuaym al-Isfahoni (vaf. 430/1038) bilan davom etganligini ta'kidlaydi. Keyin bu kitoblar bilan bog'liq kamchiliklarini sanab o'tadi. So'ngra Xatibning kelganligini, rivoyat tamoyillari haqida "Al-Kifoya" nomli kitob yozganligini, rivoyat odoblari haqida esa "Al-Jome'" li axlaq ar-roviiy va adab as-some'" nomli asar tasnif qilganligini qayd etadi. Xatibning hadis ilmining barcha sohalarida mustaqil kitoblar yozganligini ta'kidlaydi va Ibn Nuqtaning (vaf. 629) quyidagi fikrini keltiradi: "Har bir insof egasi, Xatibdan keyingi muhaddislarning uning kitoblariga muhtoj ekanligini biladi."

3. Al-Qattoniy (vaf. 1345/1927): "Keyingi davrlarda kelgan Abu Bakr Xatib rivoyat tamoyillari va usuli haqida "Al-Kifoya", rivoyat odoblari haqida esa "Al-Jome'" li-adabi-sh-shayx va-s-Some'" nomli ikki kitob yozgan. Bu ikki asar o'z mavzularida juda mukammaldir. Hech qanday hadis ilmi yo'qki, Xatib shu mavzuda mustaqil asar yozmagan bo'lsin."

4. Tahhonning tahqiqida: "Ibn Qozi Shuhba, "Al-Jome'" deb nomlagan tarixiy asari, Molikiyning "Fihrist"i, Ibn Javziyning "Al-Muntazam"i, Yoqub Hamaviyning "Mu'jamu-l-udabo"si, Ibn Hajarning "Sharhu Nuhbati-l-fikar"ining muqaddimasi, Sahoviyning "Fathu-l-mug'is"i kabi asarlarda Xatib va uning "Al-Jome'" asari haqida so'z yuritilgan." (Hatib, nashr yili ko'rsatilmagan:56)

NATIJA

Hadis o'rganish va hadisga oid bilimlarni olish maqsadida safarga chiqish ma'nosini anglatuvchi rihla, Xatibning fikriga ko'ra, ikkita sabab bilan amalga oshiriladi: Uluvvu-l-isnod (oliy isnod)ga ega bo'lish va hofizlar bilan uchrashib, ular bilan muhokama qilish va ulardan foydalanish. Agar bu ikkita shart talabani o'z hududida mavjud bo'lsa, rihlaga hojat yo'q va talabani o'z hududidagi bilimlar bilan qanoatlanishi afzalroqdir.

Bu haqda Molik shunday degan: "Ey! Ibn Vahb, Allohdan qo'rq, ilming bilan qanoatlanishni o'rgan. Agar sen turgan hududda sening ilmingga muhtoj bo'lgan odamlar bo'lsa, ularni tashlab, ko'proq bilim olish uchun rihlega chiqma. Agar shunday qilsang, ham boshqalarga foyda yetkazarsan, ham o'zing foyda ko'rasan. Agar izlayotgan biliming bilan Allohning rizosini istasang, Alloh senga bergan bilim bilan uni qo'lga kiritgansan. Agar izlayotgan biliming bilan dunyolikni istasang, bu holatda esa sening qo'lingdan hech narsa kelmaydi".

Abu Zuro Dimashqiy Abu Mushirga shunday degan: “Kishi o‘z hududining ilmi va olimi bilan qanoatlanishi kerak. Meni ko‘ryapsan, Said ibn Abdulazizning ilmi bilan qanoatlanaman. U borligida boshqa kishiga ehtiyoj sezmayman”. Yuqorida zikr etilgan ikkita masaladan biri talabaning o‘z hududida, ikkinchisi esa boshqa hududda bo‘lishi va har bir hududning o‘ziga xos bilimlari mavjud bo‘lishi holatida, masalan: talabaning Iroqlik bo‘lishi va Iroqliklarga xos uluvv isnodning mavjudligi, boshqa hududda bo‘lmagan o‘sha hudud hofizlarining rivoyatlari va turli ixtiloflar mavjudligi yoki talabaning Shomlik bo‘lishi, Shomliklarga xos uluvv isnodning mavjudligi va boshqa hududda bo‘lmagan o‘sha hudud ma‘rifat ahli rivoyatlari mavjudligi holatida, Xatibning fikriga ko‘ra, talabaning bu ikkita foydani – uluvv isnodni va bu ikki guruhning ilmini bir vaqtning o‘zida qo‘lga kiritishi uchun rihla qilishi mustahabdir. Biroq, rihlaga chiqishdan oldin talaba o‘z hududidagi rivoyatlarni to‘liq o‘rganishi va ularni yaxshi bilishi kerak – ya‘ni o‘z hududidagi rivoyatlarning sahihini, zaifini, hadis ahlini va ularning ahvolini bilishi, zamondosh va avvalgi olimlarni hamda mavjud bilimlarni o‘rganishi kerak. Talaba o‘z hududidagi roviylarning rivoyatlaridan ozgina bo‘lsa ham yozmagan rivoyat qoldirmasligi kerak, shundan keyingina rihlaga qaror qilishi lozim.

Bu ma‘lumotlardan kelib chiqadigan xulosa shundaki, hozirgi zamonda bakalavr/magistr yoki doktorantura ta‘limi uchun chet elga boradigan talabalar, chet elda ta‘lim olishni boshlashdan oldin o‘z vatanlarining ilmiy va madaniy merosiga ega bo‘lishlari, bu bilimlarni o‘zlashtirishlari va shundan keyingina boshqa mamlakatlardagi ta‘limni olishlari juda muhim ahamiyatga ega.

Boshqa tomondan, muhaddislar sahih (ishonchli) bilimga shunchalik qadr qo‘yishganki, bitta rivoyatga yetishish uchun ham oylab ketadigan safarni ko‘zlaganlar. Jobir ibn Abdulloh (r.a) aytadi: “Ilgari eshitmagan bir hadisi sharif borligi menga yetib keldi. Darhol bir tuya sotib oldim va yo‘lga chiqdim. Bir oylik safardan so‘ng Shomda Abdulloh ibn Unaysning (r.a) uyiga keldim. Eshikda turgan kishiga: “Jobir eshikda, de”, dedim. U ketdi va qaytib kelib: “Jobir ibn Abdullohmi?” deb so‘radi. Men “Ha”, deb javob berdim. U Unaysga xabar berdi. Bir zumdan keyin Unays kiyimini kiygan holda tashqariga chiqdi. Bir-birimizning bo‘ynimizga quchilib oldik. Men unga: “Qasos haqida Payg‘ambar (s.a.v.)dan men bilmagan bir hadisni eshitganingni eshitdim. Men yoki sen o‘lib ketishimiz mumkin degan fikr bilan bu rivoyatni sendan eshitish uchun tezroq keldim”, dedim. Shunda u Payg‘ambar (s.a.v.)dan quyidagini eshitganini aytdi: “Alloh qullarni – yoki insonlarni – yalang‘och, sunnatsiz va yonlarida dunyolik hech narsa bo‘lmagan holda tiriltiradi. Keyin Robblari ularga yaqin yoki uzoqda turganlar ham eshitadigan ovoz bilan: “Men

Malikman, Men Dayyonman. Hech bir jannat ahli va hech bir do‘zax ahli, agar bir zulm qilgan bo‘lsa, men bu zulm uchun undan qasos olmasdan, hatto boshqasiga urgan bir shapaloqning jazosini bermasdan, jannatga yoki do‘zaxga kira olmaydi”, deb aytadi.” Biz: “Alloh huzuriga yalang‘och, sunnatsiz va hech narsasiz kelishimiz nimani anglatadi?” deb so‘radik. Payg‘ambar (s.a.v.): “Yaxshiliklar (hasanot) va yomonliklar (sayyi‘ot) bilan”, deb javob berdi.

Ba‘zi do‘stlaridan: “Sening qo‘lingda yozilgan biliming bo‘lgan qog‘ozni yo‘qot; lekin ko‘rishib, ilmidan foydalanmagan shayxni qoldirma”, degan so‘zni eshitganini aytgan Xatib, rihla haqida yozgan “Ar-Rihla fi talabi-l-hadis” nomli asariga ishora qilib, salafdan ko‘plab olimlarning bitta hadis uchun ham rihlega chiqqanlarini ta‘kidlaydi va “Al-Jome” asarida mavzuni ortiqcha cho‘zishni istamasligini qayd etadi. Masalan, Sayyor, Jarir ibn Hayyondan quyidagi rivoyatni keltiradi: “Bir kishi: “Kim bu dunyoda musulmon birodarining bir aybini yashasa, Alloh (s.z.) ham oxiratda uning aybini yashaydi”, degan hadis uchun Misrga rihla qilib, uyiga qaytdi”.

Boshqa tomondan, rihlaga chiqishda ota-onaning ruxsatisiz chiqish mumkinmi degan masala haqida turli fikrlar mavjud. Husayn ibn Solih, Ahmad ibn Dovudning: «Mo‘minlar yoppasiga (jangga) chiqishlari shart emas. Ularning har bir guruhidan bir toifa chiqmaydimi?! (Qolganlari Payg‘ambardan) dinni o‘rganib, qavmlari ularga (jangdan) qaytib kelgach, (gunohdan) saqlanishlari uchun ularni ogohlantirmaydilarimi?!» (Qur‘on, 9:122) oyatidan kelib chiqib, rihla uchun ota-onadan ruxsat olish shart emasligini; chunki Alloh ilm o‘rganishni har bir musulmon uchun farz qilgan, degan fikrini keltiradi.

Xatibning fikriga ko‘ra, har bir musulmon uchun farz bo‘lgan bilim – Islom dinining asosiy hukmlari kabi zaruriy bilimlardir. Agar talaba o‘z hududida bu bilimlarni o‘rgatadigan ustozlar bo‘lmasa, talabaning ota-onasidan ruxsat olmasdan rihlaga chiqishi joizdir. Agar o‘z hududida zaruriy bilimlarni o‘rgatadigan kishilar bo‘lsa, ruxsatsiz rihlaga chiqish munosib emas. Agar ota-ona zaruriy bilim uchun rihlaga ruxsat bermasa, ularga yumshoq munosabatda bo‘lish, ularning ko‘nglini xushnud qilish va ularning roziligiga mos yo‘l topish kerak.

Hasan ibn Haysam Bazzozning Ahmad ibn Hanbal bilan o‘rtasida bo‘lgan suhbatida: “Ey! Abu Abdulloh! Men hadis o‘rganish (rihla) uchun safarga chiqmoqchiman, lekin onam buni man qiladi va savdo-sotiq bilan shug‘ullanishingni istaydi. Nima qilayman?” deb so‘radim. U menga: “Onangning uyida va yonida bo‘l, lekin ilm o‘rganishni davom ettir”, dedi. Bu ifodadan ko‘rinadiki, hadis uchun rihla juda ulug‘vor vazifa bo‘lsa ham, ota-onaning roziligisiz amalga oshirilgan rihla ma‘qullanmagan. Payg‘ambar (s.a.v.)

ning munosabati, sahobalar va keyingi avlodlarning tutumi ham ota-onaga itoatning muhimligini ta'kidlaydi.

Xuddi shu tarzda, Abu-l-Abbos Abdulloh ibn Amr (r.a.)dan quyidagi rivoyatni keltiradi: "Bir kishi Payg'ambar (s.a.v.)ga kelib, jihat uchun ruxsat so'radi. Payg'ambar (s.a.v.): "Ota-ong tirikmi?" deb so'radi. Kishi "Ha", deb javob berganida, Payg'ambar (s.a.v.): "Ket, jihodingni – ularga itoat va yaxshilik qilib – ular bilan qil", dedi (Buxoriy, Adab 3, Muslim, Birr 5; Ahmad ibn Hanbal, Musnad, j. 11, s. 414,). Ato ibn as-Soib o'z otasidan, u esa Abdulloh ibn Amr (r.a.)dan quyidagi rivoyatni keltiradi: "Bir kishi Payg'ambar (s.a.v.)ga kelib: "Ota-onamni yig'latgan holda qoldirib, hijrat qilish uchun, sizga bay'at qilishga keldim", dedi. Payg'ambar (s.a.v.): "Ota-onangga qayt, ularni yig'latganingdek, endi ularni kuldin", dedi (Abu Dovud, jihat 32, (h.r 2528); Ahmad ibn Hanbal, Musnad, j. 11, s. 454; Nasoiy, Bay' (h.r 7723), 13; Ibn Moja, jihat 12(h.r 2782). Tahhon, Al-Jome', 1698, 1699, 1700, 1701, 1702). Bu rivoyatlar shuni ko'rsatadiki, musulmonlar soni kam bo'lgan, har bir inson kuchi juda muhim bo'lgan davrda ham Payg'ambar (s.a.v.) ota-onaning roziligini ustun qo'ygan.

Ota-onaning roziligidan tashqari, muhaddislarning rihlaga chiqishiga to'sqinlik qiladigan boshqa omillar ham mavjud. Masalan, muhaddisning qaramog'ida oila a'zolari bo'lishi yoki yo'lda sarflash uchun yetarli nafaqasining bo'lmashligi kabi sabablar tufayli rihlaga chiqa olmaganlar bo'lgan. Abu Bakr ibn Abu-l-Asvod o'z bobosi Humayd ibn al-Asvoddan shunday rivoyat qiladi: "Sufyon menga: "Yunus ibn Yazid al-Ayliga boramizmi?" deb so'radi. Men unga: "Sening mas'uliyating yo'q, lekin mening qaramog'imda oilam bor", dedim." Bu misollar shuni ko'rsatadiki, rihlaga chiqishda nafaqat ilmiy maqsadlar, balki oilaviy va moliyaviy masalalar ham muhim rol o'ynagan. Muhaddislar ota-onaning roziligini, oilaviy mas'uliyatlarini va moliyaviy imkoniyatlarini hisobga olgan holda rihlaga chiqishgan.

Abdurrahman ibn Abu Hotimning Solih ibn Ahmad ibn Hanbal orqali o'z otasidan rivoyat qilganiga ko'ra: "Agar yonimda ellik dirham bo'lganida, Rayga borib, Jarir ibn Abdul-Humaydning yoniga borar edim. Chunki ba'zi do'stlarimiz undan hadis eshitish uchun borishdi. Men ham borishni istayman, lekin bora olmayapman." Bu rivoyat rihlaga chiqishga yana bir to'siq sifatida keltirilgan.

Rihla uchun yo'ldosh tanlash ham juda muhim masala hisoblanadi. Aban ibn al-Muhabbar, Said ibn Rofe' ibn Hotij orqali o'z otasidan Payg'ambar (s.a.v.)dan quyidagi rivoyatni keltiradi: "Payg'ambarimiz (s.a.v.): "Yo'lga chiqishdan oldin yaxshi yo'ldosh izlang", dedi. Xatibning fikriga ko'ra, hadis talabasi yo'ldoshini o'z mazhabi, istagi va maqsadiga mos

keladigan kishilardan tanlashi juda muhimdir. Ya'ni, ilmiy safarda unga hamroh bo'ladigan kishi bilan fikrlari har jihatdan mos kelishi kerak. Chunki yo'ldosh kiyimdagi rangga o'xshaydi. Agar ular o'rtasida to'liq uyg'unlik bo'lmasa, safardan maqsadga erishish qiyin bo'ladi. Shuningdek, al-Volid al-Avzoiydan shu so'zni rivoyat qiladi: Yo'ldosh kiyimdagi rangga o'xshaydi. Agar to'liq uyg'unlik bo'lmasa, u kiyimga nuqson keltiradi." Xuddi shu masala haqida Ahmad ibn Ubayd ibn Nosih al-Asmoiyning otasidan shu so'zni rivoyat qiladi: "Yo'ldosh va hamroh kishining ko'ylagidagi rangga o'xshaydi. Kishining ko'ylagini rangiga e'tibor bering", deyiladi.

An'anaviy hadis ta'lim-tarbiya odobiga ko'ra, hadis talabasi rihlaga chiqishdan oldin istihora qilishi kerak. Chunki u har doim o'zi uchun yaxshi bo'ladigan qarorlarni qabul qila olmasligi mumkin. Bunday holatlarda Allohdan yordam so'rab, Uning bilimi va ilmi bilan qaror qabul qilish to'g'riroq deb hisoblangan. Ba'zi holatlarda istihora qilishning zarurligi haqida Ismoil ibn Muhammad ibn Sa'd o'z otasi orqali bobosidan Payg'ambar (s.a.v.)dan quyidagi rivoyatni keltiradi: "Payg'ambar (s.a.v.): "Odamzodning baxti Allohning yordamiga murojaat qilishidir (istihora), baxtsizligi esa istihorani tark etishidir", dedi. Bu rivoyatlar shuni ko'rsatadiki, rihlaga chiqishda nafaqat moliyaviy va oilaviy masalalar, balki yo'ldosh tanlash, istihora qilish kabi odob va amaliyotlar ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Muhaddislar rihlega chiqishdan oldin barcha jihatlarni hisobga olgan holda harakat qilishgan.

Rihla vaqti va kuni: Kerakli tayyorgarliklar va tegishli shaxslarning roziligidan so'ng, rihla uchun afzal ko'rilgan kunlar mavjud. Muhaddislar, ayniqsa, payshanba kuni safarga chiqishni afzal ko'rishgan, chunki bu kunni barakatli deb hisoblashgan. Rihla uchun qaysi kunda chiqish kerakligi haqida Abdurrohman ibn Ka'b o'z otasi orqali Payg'ambar (s.a.v.)dan quyidagi rivoyatni keltiradi: "Payg'ambar (s.a.v.) odatda payshanba kuni safarga chiqar edi." Xatib, Ja'far ibn Sulaymon ibn Ali al-Hoshimiy orqali o'z otasidan Payg'ambar (s.a.v.)dan quyidagi rivoyatni dalil qilib keltiradi: "Allohim! Mening ummatimdan payshanba kuni erta harakat qilganlarning ishlarini barakatli qil." Xatibning fikriga ko'ra, safarga erta vaqtda chiqish mustahabdir. Yaqinlar bilan xayrlashish va ularning duo qilishlarini so'rash kerak. Safarga chiqishdan oldin yaqinlardan duo olishning barakatli bo'lishi haqida Nufay' ibn al-Horis Zayd ibn Arqamdan (r.a.) Payg'ambar (s.a.v.)ning quyidagi hadisini keltiradi: "Sizlardan kimdir safarga chiqayotganda, do'stlari bilan xayrlashib, ularning duolarini olsin. Alloh ularning duolarini o'zi uchun barakat qiladi."

Rihla uchun safarga chiqishdan oldin xayrlashish uchun qilinadigan tashrif, shuningdek, halollik so'rash va

duo talab qilish ma'nosini anglatadi. Ato Ibn Abbosdan (r.a.) quyidagi rivoyatni keltiradi: "Safarga chiqayotgan kishining chiqish vaqtida va safardan qaytayotganda birodarlarining yoniga borib, salom berishi, halollik so'rashi va ularning duolarini talab qilishi sunnatdir." Vaqtida xayrlashilayotgan shaxslarga qilinadigan duolar haqida Yahyo ibn Ismoil ibn Jarir Kazaadan quyidagi rivoyatni keltiradi: "Abdulloh ibn Umarning (r.a.) yonida edim. Uning yonidagilar ketishni istaganda, menga: "Joyingda qol, Payg'ambar (s.a.v.) xayrlashgandek xayrlashaylik", dedi. Qo'limdan ushlab musofaha qildi va quyidagilarni aytdi: "Diningni, joningni va ishlaringning oqibatini Allohga ishonib topshiraman". Hadis talabasi rihla uchun uloviga minayotganda ham duo qilishi kerak. Ali ibn Rabi'a aytadi: "Ali ibn Abu Tolibning "radif"ida edim. Uloviga minayotganda uch marta takbir aytdi, uch marta hamd aytdi va "Subhanallazi sahharo lana haza va ma kunna lahu muqrinin, Subhanaka la ilaha illa ant" dedi. So'ngra: "Payg'ambar (s.a.v.) ham shunday qilar edi", dedi. Kerakli tayyorgarliklar qilingan va mos keladigan kunda rihlaga chiqilganda, safar davomida hadis talabasiga tegishli bo'lgan ba'zi xususiyatlar mavjud. Bularning boshida yo'ldoshiga nihoyatda hurmatli munosabatda bo'lish va unga hurmatda kamchilik qilmaslik keladi.

Abu Abdurrahman al-Hubuliy Abdulloh ibn Amrning (r.a.) Payg'ambar (s.a.v.)dan rivoyat qilgan hadisini shunday aytadi: "Allohning nazarida do'stlarning eng yaxshisi, do'stiga yaxshilik qilganidir. Allohning nazarida qo'shnilarining eng yaxshisi, qo'shnilariga yaxshilik qilganidir." Bu rivoyatlar shuni ko'rsatadiki, rihlaga chiqishda nafaqat tayyorgarliklar, balki xayrlashish, duo olish, yo'ldoshiga hurmatli munosabatda bo'lish kabi odob va amaliyotlar ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Muhaddislar rihlaga chiqishda barcha jihatlarni hisobga olgan holda harakat qilishgan. Ubaydulloh ibn Imron Mujohiddan shunday rivoyat qiladi: "Ibn Umarning yo'ldoshi bo'ldim. Men unga xizmat qilishni istardim, u esa menga xizmat qilar edi". Yo'ldoshlik odobiga oid Muslim ibn Ubayd Abu Firos Rabi'a ibn Abu Abdurrohmandan shu so'zni keltiradi: "Safar va hazarning o'ziga xos odoblari bor. Safarning odobi: yo'ldosh bilan oziq-ovqatni bo'lishish, unga kam qarshilik ko'rsatish va (haromlardan saqlanib) ko'proq hazil qilish. Hazarning odobi esa: ajralishlarni masjidlarga olib kelmaslik, Qur'on tilovatini davom ettirish va ko'p do'st/yo'ldosh topishdir." Rihlaning yana bir jihati – odamlarning shaxsiyati va xarakterini ochib berishidir. Safar haqida Solih ibn Muhammad ukasi Sadoqadan shu rivoyatni keltiradi: "Safar bir qavm uchun o'lhovdir, deyiladi. Odamlarning axloqini ochib bergani uchun "safar" deb nomlangan." Yo'ldoshlikda yuzaga keladigan qiyinchiliklar va mashaqqatlarga qarshi do'stlarning ko'rsatgan munosabati, fidoyilik, bo'lishish,

sabr, hamdardlik, bir ehtiyoji tufayli kechikkanida uni kutish kabi xatti-harakatlar, shuningdek, ularning shaxsiyatini ochib beruvchi omillardir.

Barcha bu bosqichlardan so'ng, hadis talabasi rihlasini muvaffaqiyatli yakunlab, maqsadiga yetib borgach, o'zini salomat yetkazgani uchun Allohga shukr aytadi va vaqtni bekorga sarflamasdan, o'sha joyning mashoyixlaridan hadis eshitish uchun ularning yoniga boradi. Istalgan joyga yetib kelgan hadis talabasining u yerda qiladigan duosi qanday bo'lishi kerakligi haqida Avn ibn Abdulloh aytadi: "Rihla qilgan kishi bir beldaga yetib kelganda, u yerning eng mos joyida quyidagi duoni qilardi: "Allohim! Men sendan ularning yaxshilarining muhabbatini so'rayman va ularning yomonlarining sharrigandan Sening panohingga qochuraman." Va Alloh unga buni ato qilar edi." Xatibning fikriga ko'ra, rihla qilgan hadis talabasi birinchi navbatda har bir shayxdan ilgari eshitmagan va mashoyixlar tomonidan qabul qilingan rivoyatlarni eshitishi kerak. Hadis talabasida eshitish istagi va qiziqishi tugamaydi. Chunki ilm o'lchab bo'lmaydigan dengizlarga o'xshaydi, doimiy ravishda foyda keltiradigan konlarga o'xshaydi. Boshqa diyorga ilm uchun ketgan talaba bu mashaqqatiga arziydigan bilimlar bilan vaqtini o'tkazishi kerak.

Ibn Abbos (r.a.) Payg'ambar (s.a.v.)dan shu rivoyatni keltiradi: "Ikkita istak bor, ularga qiziqish tugamaydi. Biri – ilm istagi, ikkinchisi – dunyo istagi". Bu rivoyatlar shuni ko'rsatadiki, rihla nafaqat ilmiy maqsadlar, balki odob-axloq, shaxsiyat va xarakterni rivojlantirish kabi jihatlarni ham o'z ichiga oladi. Muhaddislar rihla davrida nafaqat bilim olish, balki insoniy fazilatlar va axloqiy qadriyatlarni ham mustahkamlaganlar. Oliy isnod yoki mashoyixdan hadis eshitish maqsadida rihlaga chiqadigan hadis talabasi, oilasini e'tiborsiz qoldirish, o'z ishini buzish kabi xavflarga duchor bo'lishi mumkin. Shuning uchun hadis talabasi rihla natijasida maqsadiga erishishi bilanoq o'z hududiga qaytishi va rihlada olgan bilimlarini chuqur o'rganishi kerak.

Maqsadga erishgach, safardan tezroq qaytishning ahamiyati haqida Abu Hurayra (r.a.) Payg'ambar (s.a.v.)dan quyidagi rivoyatni keltiradi: "Safar azobning bir qismidir. Uning egasini ovqatlanishdan, ichishdan va uyqudan mahrum qiladi (tartibini buzadi). Sizlardan kimdir safar orqali maqsadiga erishgach, oilasiga qaytishga shoshilsin." Shuningdek, rihlaning mashaqqatini ifodalash maqsadida Shu'ba ibn al-Hajjojning shu so'zi muhimdir: "Agar mashaqqat va qiyinchilikni his qilmoqchi bo'lsang, hadis yoz". Maqsadiga erishgach, hadis talabasining vaqtni bekorga sarflamasdan oilasiga qaytishi kerakligini aytib o'tdik. Chunki hadis talabasi qanchalik rihla qilsa ham, bilimning to'liqligiga yetish imkoni yo'q. Halaf ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Abdul-Vohid ibn Rufayd

Abu Musa Imron ibn Abdulloh an-Nuriydan shu soʻzni rivoyat qiladi: “Eshitganingni yodda saqla, bilimlaringni himoya qil. Ey! Abu Abdulloh, bundan keyin oilangga qayt, agar gʻurbanda ilm uchun yigirma yil ham qolsang, albatta senga hech eshitmagan bilimlaring yetib keladi.” Bu rivoyat shuni koʻrsatadiki, rihlaga chiqqan hadis talabasi oʻzi uchun maqsad belgilashi va maqsadiga erishgach, oʻz hududiga qaytishi kerak. Chunki maqsadiga erishgan hadis talabasi uyiga qaytib, olgan bilimlarini chuqur oʻrganishi va ularni oʻzlashtirishi kerak.

Oʻzlashtirilgan bilimlarni muloqot orqali oʻzlashtirish kerakligi haqida Ahmad az-Zubayriy Ibn al-Muborakdan shu rivoyatni keltiradi: “Kim olgan bilimining oʻziga foyda keltirishini istasa, kitoblarini mutolaa qilsin”. Qisqacha aytganda, rihla haqida bizga juda batafsil maʼlumot bergan Xatibning fikriga koʻra, hadis talabasining ilm uchun safar qilishi juda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, hadis talabasining safarining boshlanishidan, rihlaga chiqadigan kunini tanlashidan, rihlaga chiqishdan oldin oilasiga, ota-onasiga va atrofida qilargacha nisbatan masʼuliyatlarini bajarguncha, safarda qolishi kerak boʻlgan muddat, qaytganda bajariishi kerak boʻlgan ilmiy majburiyatlarga boʻlgan masʼuliyatlari borligi aniq koʻrinadi. Bu jihatlar shuni koʻrsatadiki, rihla nafaqat ilmiy maqsadlar, balki oilaviy, ijtimoiy va shaxsiy masʼuliyatlarni ham oʻz ichiga oladi. Muhaddislar rihla davrida nafaqat bilim olish, balki oila va jamiyatdagi vazifalarini ham unutmasdan harakat qilishgan.

XULOSA

Tadqiqot natijasida Xatib al-Bagʻdodiyning «Al-Jomeʼ li axlaq ar-rovii va adab as-someʼ» asari hadis ilmi metodologiyasi va pedagogikasiga doir fundamental prinsiplarni oʻzida mujassam etgan tizimli nazariya ekanligi aniqlandi. Muallif oʻzining konseptual qarashlarini marfuʼ, mavquf va maqtuʼ rivoyatlar hamda Qurʼon oyatlari bilan asoslash orqali asarning dalillik asosini mustahkamlagan. Ayniqsa, muallifning turli qarashlar tahlilidan soʻng *“Bizning tanlovimiz shudir”* iborasi ostida oʻzining mustaqil ilmiy pozitsiyasini bayon etishi uning metodologik yondashuvidagi oʻziga xoslikni koʻrsatadi.

Asarda ilm talab qilish — inson maʼnaviyatini yuksaltiruvchi va ibodatlar mohiyatini mustahkamlovchi strategik faoliyat sifatida talqin etilgan. Xatib al-Bagʻdodiy hadis ilmining matn, sanad, sahih, zaif va boshqa texnik tasniflarini chuqur egallashni eng ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Shu bilan birga, u bilimni oʻzlashtirish va uzatish (rivoyat qilish) jarayonini qatʼiy axloqiy-etik qoidalar bilan bogʻlaydi, bu esa taʼlimning

nafaqat intellektual, balki tarbiyaviy transformatsiyasini ham taʼminlaydi.

Manbadagi ayrim zaif rivoyatlarning mavjudligi yuzasidan bildirilgan tanqidiy mulohazalar tahlil qilinganda, ushbu rivoyatlarning umumiy matndagi salmogʻi kamligi va ular asosan asosiy gʻoyalarni toʻldiruvchi (shohid) vazifasini oʻtashi maʼlum boʻldi. Binobarin, muallifning ilmiy konsepsiyasi faqat zaif manbalarga tayanadi degan xulosalar oʻz isbotini topmadi.

Ushbu tadqiqot orqali quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

1. Xatib al-Bagʻdodiy tomonidan ilgari surilgan taʼlim-tarbiya prinsiplari bevosita Qurʼon va Sunnatga asoslangan boʻlib, Islom sivilizatsiyasining ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini shakllantirishda poydevor boʻlib xizmat qilgan.

2. Hadis oʻrganish va oʻrgatish odoblarining tizimlashtirilishi bugungi kun pedagogikasi uchun ham dolzarb boʻlgan Ustoz-shogird munosabatlarining etik modelini taqdim etadi.

3. Asarning oʻrganilishi zamonaviy hadisshunoslikda uchrayotgan metodologik muammolarga klassik manbalar prizmasi orqali yechim topish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, Xatib al-Bagʻdodiyning ilmiy merosi nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy taʼlim tizimida ilmiy salohiyat va axloqiy komillikni integratsiya qilishda muhim qoʻllanma boʻlib xizmat qiladi.

MANBA VA ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Abdulaziz Mansur. (2012) Qurʼoni karim maʼnolarining tarjima va tafsiri Toshkent: Toshkent islom universiteti.
2. Al-Buxoriy. (1996) Al-Adab al-mufrad. Bayrut: Dar al-kutub al-ilmiya.
3. Aydinli, Abdullah. (2012) Hadis Istilohlari Sözlüğü, İstanbul: Marmara Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Vakfı Yayınları.
4. Çakan, İsmail Lütfi. (2003) Hadis Edebyatı, İstanbul: MÜİF Yayınları.
5. Hamroqulov J. (2004) Mustalah al-hadis. Toshkent: Movarounnahr.
6. Hatib al-Bagʻdodiy Abu Bakr Ahmad ibn Ali ibn Sobit ibn Ahmad ibn Mahdiy Tarixu Bagʻdod. (1417/1996) tahqiq. Mustafod Abdulqodir Ato. Bayrut: Darul-kutubi-l-ilmiyya.
7. Hatib al-Bagʻdodiy. (1403/1983) Abu Bakr Ahmad ibn Ali ibn Sobit ibn Ahmad ibn Mahdiy, Al-Jomeʼ li-axlaqi-r-ovi va adabi-s-someʼ, tahqiq. Mahmud Tahhon. Riyod: Maktabatu-l-maorif.
8. Hatib al-Bagʻdodiy. Abu Bakr Ahmad ibn Ali ibn Sobit ibn Ahmad ibn Mahdiy (1996) Al-Jomeʼ li-axlaqi-r-ovi va adabi-s-someʼ. tahqiq. Ajaj al-Hatib, Bayrut: Muassasatu-r-risola.

9. Hatiboğlu İbrahim. (1991) Hadis Usûlü Kaynaklarına Göre Hadis Öğrenim ve Öğretim Âdâbı. Basılmamış Yüksek Lisans tezi. İstanbul: Marmara Üniversitesi.
10. Ibn Abdullbarr. Abu Umar Jamoluddin Yusuf ibn Abdulloh ibn Muhammad ibn Abdilbarr an-Namariy al-Qurtubiy (1414/1994) Jome'u bayoni'l-ilmi va fazlih. as Suudiyya: Daru Ibnî'l-Javziy.
11. Ibn Adiy. Abu Ahmad Abdulloh ibn Adiy ibn Abdulloh ibn Muhammad, al-Jurjoniy (1409/1988) al Komil fi du'afoi'r-rijal. tahqiq. Yahyo Muhtor G'azaviy. Bayrut: Daru'l-fikr.
12. Ibn Asokir. Abu'l-Qosim Ali ibn al-Hasan ibn Hibatilloh ad-Dimashqiy. (1414/1995) Tarixu Dimashq. tahqiq. Amr ibn G'aroma al-Umraviy. Bayrut: Daru'l-fikr.
13. Ibn Hallikon. Abu'l-Abbos Shamsuddin Ahmad ibn Muhammad ibn Ibrohim ibn Abu Bakr al-Barmakiy al-Irbiliy (1990) Vafayotu'l-a'yon va anbou abnoi'z-zamon, tahqiq. Ihson Abbos. Bayrut: Daru Sadir.
14. Ibn Kasir Abu'l-Fido Imoduddin Ismoil ibn Shihobiddin Umar ibn Kasir ibn Dav' ibn Kasir al-Qaysiy al-Qurashiy al-Busroviy ad-Dimashqiy ash-Shofiy. (1408/1988) al-Bidoya va'n-nihoya, tahqiq. Ali Shiriy Bayrut: Daru ihoyi't-turosi'l-arabiy.
15. İmâd Ali Cum'a. (2011) Tablolarla Hadîs Usûlü ve Edebiyatı. çev. Yavuz Köktaş, İstanbul: İnsan Yayınları.
16. Karacabey Salih. (2002) Hattâbî'nin Hadis İlmindeki Yeri. İstanbul: Sır Yayıncılık.
17. Koçyiğit Talât. (2009) Hadis Usûlü. Ankara: TDV Yayınları.
18. Koçyiğit Talât. (2010) Hadis Tarihi. Ankara: TDV Yayınları.
19. Obidov R. (2012) Sunnat, hadis va muhaddislar. Toshkent: Movaro-unnahr.
20. Sarı Necmi. (2003) el-Hâtîb el-Bağdâdî ve Hadis İlmindeki Yeri. İstanbul: Ümmülkura Yayınevi.
21. Subhi es-Sâlih. (1973) Hadis İlimleri ve İstilahları. ter. M. Yaşar Kandemir. Ankara: DİB Yayınları.
22. Tahhon Mahmud. (1401/1981) al-Hofiz al-Hatib al-Hatib va asaruhi fi ulumi'l-hadis, Bayrut: Daru'l Qur'oni'l-karim.
23. Tahhon Mahmud. (1417/1996) Taysiru mustalahi'l-hadis. Riyod: Maktabatu'l-maorif.
24. Yücyel Ahmed. (2014.) Hadis İstilahlarının Doğuşu ve Gelişimi Hicrî İlk Üç Asır. İstanbul: İFAV.
25. Zirikli Hayriddin ibn Mahmud. (2002) al-A'lam. Daru'l-ilm li'l-maloyin. 15. nshr.
6. Hatib al-Bag'dadi, Abu Bakr Ahmad ibn Ali ibn Thabit ibn Ahmad ibn Mahdi. (1417/1996). Tarikh Baghdad. Edited by Mustafa Abdulqadir Ato. Beirut: Dar al-Kutub al-'Ilmiyya.
7. Hatib al-Bag'dadi, Abu Bakr Ahmad ibn Ali ibn Thabit ibn Ahmad ibn Mahdi. (1403/1983). Al-Jami' li-Akhlaq al-Rawi wa Adab al-Sami'. Edited by Mahmud Tahhan. Riyadh: Maktabat al-Ma'arif.
8. Hatib al-Bag'dadi, Abu Bakr Ahmad ibn Ali ibn Thabit ibn Ahmad ibn Mahdi. (1996). Al-Jami' li-Akhlaq al-Rawi wa Adab al-Sami'. Edited by Ajaj al-Khatib. Beirut: Mu'assasat al-Risala.
9. Hatiboğlu, İbrahim. (1991). Hadis Usûlü Kaynaklarına Göre Hadis Öğrenim ve Öğretim Âdâbı. Unpublished Master's Thesis. İstanbul: Marmara University.
10. Ibn 'Abd al-Barr, Abu 'Umar Jamal al-Din Yusuf ibn 'Abd Allah ibn Muhammad ibn 'Abd al-Barr al-Namari al-Qurtubi. (1414/1994). Jami' Bayan al-'Ilm wa Fazlih. Saudi Arabia: Dar Ibn al-Jawzi.
11. Ibn 'Adiyy, Abu Ahmad 'Abd Allah ibn 'Adiyy ibn 'Abd Allah ibn Muhammad al-Jurjani. (1409/1988). Al-Kamil fi Du'afa' al-Rijal. Edited by Yahya Mukhtar Ghazawi. Beirut: Dar al-Fikr.
12. Ibn 'Asakir, Abu'l-Qasim 'Ali ibn al-Hasan ibn Hibat Allah al-Dimashqi. (1414/1995). Tarikh Dimashq. Edited by 'Amr ibn Gharama al-'Umravi. Beirut: Dar al-Fikr.
13. Ibn Khallikan, Abu'l-'Abbas Shams al-Din Ahmad ibn Muhammad ibn Ibrahim ibn Abu Bakr al-Barmaki al-Irbili. (1990). Wafayat al-A'yan wa Anba' Abna' al-Zaman. Edited by Ihson Abbas. Beirut: Dar Sadir.
14. Ibn Kathir, Abu'l-Fida' 'Imad al-Din Isma'il ibn Shihab al-Din 'Umar ibn Kathir ibn Daw' ibn Kathir al-Qaysi al-Qurashi al-Busrawi al-Dimashqi al-Shafi'i. (1408/1988). Al-Bidaya wa'n-Nihaya. Edited by 'Ali Shiri. Beirut: Dar Ihya' al-Turath al-'Arabi.
15. İmâd, Ali Cum'a. (2011). Tablolarla Hadîs Usûlü ve Edebiyatı. Translated by Yavuz Köktaş. İstanbul: İnsan Publications.
16. Karacabey, Salih. (2002). Hattâbî'nin Hadis İlmindeki Yeri. İstanbul: Sır Publishing.
17. Koçyiğit, Talât. (2009). Hadis Usûlü. Ankara: TDV Publications.
18. Koçyiğit, Talât. (2010). Hadis Tarihi. Ankara: TDV Publications.
19. Obidov, R. (2012). Sunnat, hadis va muhaddislar. Tashkent: Movarounnahr.
20. Sarı, Necmi. (2003). el-Hâtîb el-Bağdâdî ve Hadis İlmindeki Yeri. İstanbul: Ümmülkura Publishing.
21. Subhi al-Salih. (1973). Hadis İlimleri ve İstilahları. Translated by M. Yaşar Kandemir. Ankara: DİB Publications.
22. Tahhan, Mahmud. (1401/1981). Al-Hafiz al-Khatib wa Atharuhi fi 'Ulum al-Hadith. Beirut: Dar al-Qur'an al-Karim.
23. Tahhan, Mahmud. (1417/1996). Taysir Mustalah al-Hadith. Riyadh: Maktabat al-Ma'arif.
24. Yücyel, Ahmed. (2014). Hadis İstilahlarının Doğuşu ve Gelişimi Hicrî İlk Üç Asır. İstanbul: İFAV.
25. Zirikli, Khayr al-Din ibn Mahmud. (2002). Al-A'lam. 15th ed. Beirut: Dar al-'Ilm li'l-Malayin.

REFERENCES

1. Abdulaziz Mansur. (2012). Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. Tashkent: Tashkent Islamic University.
2. Al-Bukhari. (1996). Al-Adab al-mufrad. Beirut: Dar al-Kutub al-'Ilmiyya.
3. Aydınli, Abdullah. (2012). Hadis İstilahları Sözlüğü. İstanbul: Marmara University Faculty of Theology Foundation Publications.
4. Çakan, İsmail Lütfi. (2003). Hadis Edebiyatı. İstanbul: MÜİF Publications.
5. Hamroqulov, J. (2004). Mustalah al-hadis. Tashkent: Movarounnahr.